

NUTQDA KINESTIK XATTI-HARAKATLARNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING QO‘LLANILISHI

Madina BERDIMURATOVA

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida tayanch
doktoranti*

E-mail: madinaberdimuratova65@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8116598>

Annotatsiya: Ushbu maqolada noverbal muloqot va uning kinetikaga oid birliklari haqida so‘z boradi. Kinesika bu og‘zaki bo‘lmagan imo-ishoralar, ifodalar hamda tana harakatlarini o‘z ichiga oladi. Maqolada yuz imo-ishoralari, gavda harakatlariga oid, qo‘l harakati, yelka harakati, bosh va oyoq harakatlari tahlil qilingan va ularning inson emotsional his-tuyg‘ularini ifodalashdagi o‘rni bayon etilgan.

Tayanch iboralar: Muloqot, noverbal muloqot, kinesika, mimika, pantomomika, yuz ifodasi, bosh imo-ishorasi, qo‘l harakati, yelka imo-ishoralari, oyoq imo-ishoralari.

KIRISH. (Introduction)

Muloqot – bu kishilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan axborot almashinuvi jarayoni hisoblanadi. Muloqot qanday vositalar asosida amalga oshishi muloqotning turini belgilab beradi. Ya‘ni verbal yoki noverbal muloqot turini belgilaydi. Verbal muloqot bu so‘zlar vositasida amalga oshiriladigan yozma muloqot turidir. Ushbu maqolada noverbal muloqot turlari haqida gaplashamiz. Noverbal muloqot til va tovushlarga asoslanmagan muloqot turi bo‘lib, bu muloqot turida mimika, imo-ishoralar, pantomimika yoki tana orqali qilinadigan aloqalar vositasidagi muloqot tushuniladi. Noverbal muloqot kommunikatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular nutqni to‘ldiradi, uning o‘rnini bosadi, mavjud vaziyatga qo‘shimcha uslubiy ma‘no beradi. Noverbal vositalar verbal muloqotni to‘ldiradi. Noverbal vositalar orqali bir so‘zga ko‘plab ma‘no berish mumkin. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimika yordamida ifodalanadi. Professor Berdvisll insonlar muloqotida noverbal vositalarning hissasi borasida tadqiqot o‘tkazadi. U kun davomida inson o‘rtacha 10-11 daqiqa davomida gapirishini, har bir gap ko‘pi bilan 2,5 sekund talaffuz qilinishini aniqlagan. Olim axborotning 35%dan kamroq qismi so‘z vositasida, qolgan 65% dan ortig‘i esa noverbal kommunikatsiyalar orqali amalga oshirishini qayd qilgan. Demak, misollardan ko‘rinib turibdiki, noverbal muloqot inson nutqida katta ahamiyatga ega. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, noverbal muloqot tilshunoslik fanining bir qismi sifatida tadqiq etilib, komponentlar soni quyidagicha:

1. Paralingvistika (noverbal muloqotning ovoz kodlari);
2. Kinesika (imo-ishora harakatlari);
3. Okuleksika (ko‘z harakatlari);
4. Auskultasiya (insonlarning ovoz ohangi);
5. Gaptika (inson gavda qismiga teginish suhbat);
6. Gastika (oziq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta‘m bilish);
7. Olfaksiya (hid bilish orqali muloqot);
8. Proksemika (muloqot maydoni);
9. Xronemika (muloqot vaqti);
10. Sistemologiya (insonni o‘rab turgan atrof-tevarak).

Mazkur maqolada asosan, kinesika (imo-ishora harakatlari) haqida fikr yuritimiz. Kinesika atamasi ilk bor fanda amerikalik antropolog Rey Birdvistell tomonidan qo'llangan. Uning olib borgan tadqiqotlari natijasida kinesikani o'rganish birmuncha rivojlangan. Kinesika nimani nazarda tutishiga ko'ra 2 katta guruhga bo'lib o'rganiladi. Bular mimika va tana harakatlari. Mimika deganda yuz bilan bog'liq imo-ishoralar yig'indisi tushuniladi. Masalan, xo'mrayib oldi, angrayib qaradi, tabassum qildi, yuzi tundlashdi, jilmaydi va hokazo. Masalan, Norqul aka yuzidagi xursandchilik ifodasini yashirmay, achib-idish girdidan ko'pchib toshgan xamirdek yoyilib jilmaydi. [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat", 23-b]. Jilmaymoq so'zi kulimsiramoq, tabassum qilmoq [O'TIL, 2 tom] degan ma'noni bildiradi. Demak, ushbu misolda so'zlovchi mavjud vaziyatdan mamnun ekanligini, majlis holatidan qoniqayotganligini yuz ifodasi ya'ni yoyilib jilmayishi orqali ifodalaydi. Yozuvchi keltirilgan gapdagi achib-idish girdidan toshgan xamirdek iborasini ham bejizga qo'llamagan. Chunki iboralar kishi nutqining ta'sirchanligini oshiradi. Odatda achib-oshgan xamir me'yorida yetilgan hisoblanadi va undan tayyorlanadigan mahsulot sifatiga ya'ni mazali bo'lishiga yordam beradi. Bu yerda Norqul akaning yuz ifodasi ham ana shunday me'yoridagi xursanchilikni "yoyilib jilmaymoq" yuz ifodasi orqali yetarlicha ifodalab beraolgan. Negaki, inson his-tuyg'ularini ifoda etishda yuz imo-ishoralariga tenglasha oladigani yo'q. Aynan yuzlar ba'zida so'zlardanda ko'proq ma'noni ifodalab kelishi mumkin. Qo'lini orqasiga qo'yib olib karavot yonida xuddi auditoriyada dars berayotgan muallimdek dam u yoqdan bu yoqqa shiddat bilan borib kelaar, dam to'xtab o'siq qoshlarini chimirar, asabiylashar, so'ng izlaganini topadigandek tag'in yo'rg'alab ketar edi [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat"]. Yuqoridagi misolda noverbal muloqotning bir nechta turini uchratishimiz mumkin. Bular qo'lini orqasiga qo'yib olmoq, qoshlarini chimirar, asabiylashar va yo'rg'alab ketar birikmalaridir. Qo'l odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi. [O'TIL, 5-tom]. Ushbu misolda qo'lini orqasiga qilib olmoq so'zlovchining ichki kechinmalarini, olis o'tmishida qolgan o'qituvchilik faoliyatini esga soladi. Qosh qovoq tepasidagi yoysimon tukli qatlam. [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat"]. Matnda qoshlarini chimirar birikmasi esa peshonani tirishtirmoq, taajjub, achchiqlanish kabi his-tuyg'ularni ifodalash uchun qo'llangan. Yozuvchi ma'noni yanada bo'rttirish uchun esa asabiylashar birikmasini qo'llaydi. Yo'rg'alab ketmoq esa tana harakatiga misol bo'ladi. Noverbal muloqotni aks ettirishda biz tana harakatlaridan ham unumli foydalanamiz.

Tana harakatlari deganda esa tana a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar yig'indisi tushuniladi. Masalan, bosh, qo'l, oyoq, yelka va hokazo. Ba'zi manbalarga ko'ra tana a'zolarining o'zi 4 guruhga bo'lib o'rganiladi. Bular quyidagilar: 1. Bosh imo-ishoralari; 2. Qo'l imo-ishoralari; 3. Oyoq imo-ishoralari; 4. Yelka imo-ishoralari.

Bosh imo-ishoralari bevosita bosh harakatlari orqali amalga oshiriladi. Bunda boshni yon tomonga burish, boshini xam qilish, boshini sarak-sarak qilish, egish va tik tutish kabi holatlar ham kiradi. Xullas, nima bo'lganda ham Gulshoda, mana, ikki haftadir to'shakdan bosh ko'tarmadi. [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat", 252-bet]. Ko'tarmoq fe'li 10ga yaqin ko'plab ma'nolarni ifodalab keladi. Biz ushbu misolda ko'tarmoq fe'lining aynan jumlagi aloqador ma'nosini izohlaymiz. Ko'tarmoq fe'li ayrim otlar bilan birikib, shu ot bildirgan narsani yuzaga kelishini ifodalaydi. [O'TIL, 2-tom]. Boshni ko'tarmoq ibora bo'lib, qo'zg'almoq, harakat qilmoq, qaramoq ma'nolarini bildiradi. Ushbu gapda esa bosh ko'tarmadi birikmasi Gulshodaning laoqal boshini qimirlatishga ham majoli yo'qligi, kasallik uni holdan toydirganini ifodalash maqsadida ishlatilmoqda. Bosh ko'tarmoq iborasi esa 2 xil ma'noda qo'llanadi; 1) oyoqqa turmoq, tuzalmoq. 2) mashg'ul bo'lgan birorta ishdan to'xtamoq, uzilmoq. [O'TIL, 1-tom]. Ushbu gapda bosh ko'tarmoq

iborasi bemorning kasallikdan tuzalmagani, ahvoli hanuz yomonligi va boshini ko'tarishga holi yo'qlik emotsional holatini ifodalashga xizmat qilmoqda. Yana bir misolni ko'rib chiqalik. Bu orada Yusuf yettinchi qavatga chiqib ulgurgan va boshini quyi solgancha lift kutib turgan Shavkatga duch kelgandi. Bosh so'zi tananing bo'yindan yuqori (old) qismida joylashgan a'zo. [O'zbek tilining etimologik lu'ati, 1-jild]. Boshini quyi solmoq, Shavkatning botinidaa kechayotgan mahzun o'ylar, chorasizlik va xafaligini aks ettiradi. Eng yaqin insonlaridan biri, ustoz bilan bo'lgan muloqot jarayoni uni ana shunday boshini quyi solib, o'ylashga, maxzun qiyofaga kiritgan edi. Kinesikaning ikkinchi turi qo'l imo-ishoralari hisoblanadi. Bunda qo'llar harakati orqali bezovtalikdan ochiqlikka qadar turli holatlar ifodalanadi. Qo'l imo-ishoralari so'zlashuv jarayonida noverbal muloqotning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. Nimani kinga vasiyat etayotgan bo'lsam, hammasi, meniki, Muhammadniki... ko'kragiga "gurs-gurs" mushtladi. [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat", 26-bet]. Gurs so'zi taqlid so'z bo'lib, zarb bilan urish, urilish natijasida chiqadigan bo'g'iq ovoz. [O'TIL, 1-tom]. Keltirilgan misolda gurs-gurs so'zi so'zlovchining tinglovchi xatti-harakatidan norozi ekanligini, qo'llarini musht qilib, ko'kragiga urish orqali ifodalaydi. Bu harakat orqali atrofdagi yig'ilganlarga o'zining haq ekanligi, mulk o'zigagina tegishli ekanligi va qarorni ham o'zi chiqarishini so'zsiz yetkazib beradi. Bundan ko'rinadiki, qo'l harakatlari eng keng tarqalgan ishoralardan bo'lib, ushbu noverbal muloqot turidan so'zlashuv jarayonida, uzoq va yaqin masofada ham undan foydalaniladi. U so'zlovchining his-hayajonini, ichki tuyg'ularini tinglovchiga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Endi oyoq yordamida ifodalangan imo-ishoralar haqida to'xtalamiz. Oyoqlar miyadan eng uzoq masofada joylashgan a'zo bo'lib, kamroq boshqariladigan harakat turiga ega bo'lishadi. [Robert Simon]. Ular ham, ya'ni oyoqlar ham noverbal muloqot turida o'z o'rni va qo'llanish doirasiga ega. Oyoq xatti-harakatlari orqali ham so'zlovchining jismoniy va ma'naviy holatini ochib berish mumkin. Masalan, oyoqlarni dadil tashlamoq-ishonchni, beixtiyor tashlamoq esa ishonchsizlikni, oqsab yurmoq-kasallikni, tez qadam tashlamoq kishining shoshayotganligini, oyog'i tortmadi-borgisi yo'qligini, oyoq ildi- tez yurdi kabi ma'nolarni bildirishi mumkin. Cho'loqlangancha Amir musichaning ortidan atirgullarning quruq shoxlari shixshayib chiqib turgan qorli maydonga kirdi. Cho'loqlanmoq- 1) Oqsab yurmoq, oqsoplanmoq, oqsamoq. 2) Oyoq yoki qo'lidan ajralib, nogiron bo'lib qolmoq. [O'TIL, 4-tom]. Cho'loqlanmoq ushbu gapda Amirning tepkilar zarbidan qaqshab, og'riq berayotgan oyog'ining holatini ko'rsatib berish uchun qo'llangan. Endi u jon talvasasida oyoqlarini potratat, natijada butun gavdasi silkinib, katta xonaning u burchagidan bunisiga xuddi belanchakdek borib kelardi. POtratmoq o'zbek tilining izohli lug'atida ikki ma'noda beriladi. 1)patirlamoq o'z ma'noda; 2)ko'chma ma'noda. Bezovta bo'lmoq, shoshilib, hovliqib qolmoq. [O'TIL. 3-tom]. Demak, potratat so'zi Gulshodaning oyoqlari stulga tegib yiqilganidan keyin aqli shoshib, oyoqlarini harakatga keltirishini bo'rttirib ifodalash uchun qo'llangan. Kinesikaning yana bir turi bu yelka imo-ishoralaridir. Yelka imo-ishoralari odatda ko'p qo'llanilmasa ham, u orqali ba'zi manolarni yetarlicha ifodalab berish mumkin. Ko'pincha ushbu imo-ishora turi boshqa tana a'zolarining harakatlari bilan birgalikda ham qo'llanadi. Masalan: Yusuf to'nini yelkasiga tashlagancha ohista yurib tashqari chiqdi. [Ulug'bek Hamdam "Muvozanat"]. Yelkasiga tashlagancha narsani biron boshqa narsa, joy ustiga, ostiga yoki ichiga yo'naltirmoq, olmoq, solmoq. [O'TIL. 4-tom]. Bundan tashqari yelka bilan bog'liq imo-ishoralarga yelkani qisib qo'yish, yelkasi silkinib ketar, yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi kabi birliklarni ham misol qilishimiz mumkin. Bunday noverbal birliklar so'zlashuv jarayonida vaziyatni ochib berishda, qo'shimcha ma'no yuklashda, ma'noni bo'rttirib ifodalashda qo'l keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurazzoqova. M. Noverbal muloqot va uning kommunikatsiyadagi o'rni. – Orient Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023.
2. D. Urinbayeva. O'quvchilarda verbal va noverbal matnlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. –Samarqand, 2021.
3. Mahmudova M. Muloqot psixologiyasi o'quv qo'llanma. –Toshkent: Turon-iqbol, 2006.
4. Maxmudov N. Ma'rifat manzillari. –Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
5. Saydullayeva Surayyo. O'zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Samarqand, 2022.
6. Temirova F. NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA – PARALINGVISTIKANING O'RGANILISH TARMOG'I SIFATIDA //SCIENCE AND INNOVATION. 2022. – S.22.
7. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. Toshkent, 2017.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-5 tomlar "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006
9. Robert Simon. Kinesikaning tili. Maqola 15.06.2021.